



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/4



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 4-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 4 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



UO‘K:811.521`35:159.953.4

KANJI O‘RGANISHDA MNEMONIK USULLARNING SAMARADORLIGI

Eminjonova Muhayyoxon¹Email: eminjonovamuhayyo@gmail.com¹

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Sharq filologiyasi, Yapon tili filologiyasi, 2507 – guruh talabasi, Toshkent, O‘zbekiston¹

Annotatsiya: Yapon tilini o‘rganishga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Biroq, yapon tili murakkablik darajasi bo‘yicha dunyoda 3 – o‘rinni egallaydi. Ushbu tilda 3 xil yozuv turi mavjud bo‘lib, ular hiragana, katakana va kanji hisoblanadi. Kanji belgilari murakkab visual tuzilishi, turli xil o‘qilishi va ma‘no zichligi tufayli eslab qolish juda ham qiyin. Ushbu maqolada mnemonik texnikalar orqali kanji yodlashning qiziqarli usullarini o‘rganish, hayotiy hikoyalar tuzish, ko‘z o‘ngimizda tasavvur qilishga asoslangan strategiyalar orqali o‘rganish samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratiladi. Kanjilarni miyyamizdagi uzoq muddatli xotirada saqlanib qolish uchun faqatgina an‘anaviy o‘rganish metodlari yetarli bo‘la olmaydi. Qolaversa, ushbu maqolada yapon tilida hiragana va katakana yozuv turlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan, kanji ishlatilinishining ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Kirish so‘zlar: kanjining ahamiyati, yapon tili, mnemonika orqali kanji o‘rganish.

Kirish: Kanji ilk bor Xitoyda paydo bo‘lgan logografik belgilar bo‘lib, tilni tovushga asoslangan birliklari o‘rniga ma‘noga asoslangan birliklari orqali ifodalaydi. Misol uchun, xitoy tilida iyerogliflarning bitta o‘qilishi mavjud. Tarixda yaponlar barcha iyerogliflarni xitoyliklardan o‘zlashtirib olib, turlicha talaffuz qilish usullarini ishlab chiqishgan va ushbu o‘zgarishlar yapon tilini o‘rganuvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘diradi. Jami bo‘lib yapon tilida 10000 dan ortiq kanji mavjud bo‘lib, deyarli 2000 tasini bilish orqali til foydalanuvchilari akademik muvaffaqiyatga erisha oladi. Avvalo, boshlang‘ich darajadagi insonlar uchun kanji yodlashda mnemonikaning ko‘plab afzalliklarini ko‘rib chiqamiz. Mnemonika bu - sun‘iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi hisoblanadi. Misol uchun, odam (人 — Hito) kanjisiga nazar solsak, ikki oyog‘i bilan yerda mustahkam turgan odamga o‘xshaydi. Oy (月 — Tsuki) bu kanji yarim oyni (hilolni) eslatadi. Kanjining ichidagi ikkita gorizontaal chiziqni oyni to‘sib turgan bulutlar deb tasavvur qilamiz. Shunaqangi ajoyib tasavvur qilish orqali hattoki eng murakkab kanjilarni bir qancha chiziqlar to‘plami emas, balki jonli suratlar sifatida qabul qilamiz. Yana bir eng qiziqarli kanjilardan biri - daryo (川 — Kawa). Tasavvur qiling, siz tepalikdan daryoga qarab turibsiz. Kanjidagi uchta chiziq — bu parallel ravishda oqayotgan suv oqimlari yoki daryoning ikki qirg‘og‘i va uning o‘rtasidan oqayotgan suvdir. Shuningdek, mnemonikadan samarali foydalanish orqali ta‘lim olish jarayonimizni mazmunli tarzda o‘tkaza olamiz. Stenford





universiteti professori va psixolog, "Growth Mindset" (O'sish tafakkuri) tushunchasi asoschisi Carol Dweck "Qobiliyat — bu shunchaki boshlang'ich nuqta. Har qanday qiyinchilikni o'rganish va mehnat qilish orqali yengish mumkin, chunki miya xuddi mushaklar kabi mashqlar orqali rivojlanadi." – deb "Muvaffaqiyat psixologiyasi" nomli kitobida yozib qoldirgan.

Yapon tilida hiragana va katakana kabi alifbo mavjud bo'lsa ham, nega kanjilardan voz kechib bo'lmaydi? Chunki, hiraganada yozilgan **かみ** (kami) so'zining 3 ta ma'nosi mavjud bo'lib, ularni fqatgina kanjisi orqali farqlay olamiz. Birinchi ma'nosi **神** (kami) — xudo, ikkinchisi esa **紙** (kami) — qog'oz va oxirgisi **髪** (kami) — soch. Shuning uchun, kanjilarni yozuv tizimidan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Agar kanjilar yozuvda qo'llanmasa, noto'g'ri tarjima qilish va noto'g'ri tushunchalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich o'quvchilar uchun yapon tilidagi kanjilarni semantik jihatdan anglash, vizual tasavvurni ongimizda aks ettirish uchun mnemonikaning o'rni beqiyos. **Paivio's Dual Coding Theory** nazariyasi shuni ko'rsatadiki, inson miyasi ma'lumotni ikki tomonlama: vizual va verbal ko'rinishda saqlasa, uni eslab qolish ehtimolligi 2 baravarga ortadi. Aslida iyerogliflar murakkab emas, yaxshilab e'tibor berilsa, qandaydir narsa yoki biror vaziyatning qog'ozdagi tasviriy ifodasiga o'xshaydi. Shunday ekan, iyerogliflarni o'rganish nafaqat xotira mashqi emas, balki bizning dunyoqarashimizni kengaytiradigan vosita bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allan, Paivio. (1971). *Imagery and Verbal Processes*. New York: Holt, Rinehart and Winston. (Dual Coding Theory nazariyasi uchun asosiy manba).
2. Dweck, Carol S. (2006). *Mindset: The New Psychology of Success*. New York: Ballantine Books. (Maqoladagi iqtibos olingan asosiy asar).
3. Henshall, Kenneth G. (2013). *A Guide to Remembering Japanese Characters*. Tokyo: Tuttle Publishing. (Kanjilarni mnemonika orqali o'rganish bo'yicha metodik qo'llanma).
4. Heisig, James W. (2011). *Remembering the Kanji: A Complete Course on How Not to Forget the Meaning and Writing of Japanese Characters*. University of Hawaii Press. (Mnemonik strategiyalar bo'yicha eng mashhur manbalardan biri).
5. Kano, Chieko. et al. (2015). *Basic Kanji Book Vol. 1*. Tokyo: Bonjinsha. (Boshlang'ich darajadagi kanji strukturasi va tasvirlari uchun).
6. Sansom, George. (1928). *An Historical Grammar of Japanese*. Oxford University Press. (Yapon yozuvining tarixiy rivojlanishi va xitoy iyerogliflarining o'zlashtirilishi haqida).

